

TOHIR MALIK ASARLARIDA EGASI UMUMLASHGAN VA SHAXSI NOMA'LUM GAPLARNING LINGVISTIK TAHLILI

*Termiz davlat universiteti talabasi
Amiriddinova Mohinur Ma'sidovna
Ilmiy rahbar: D.A.Ergasheva*

Anotatsiya: Ushbu maqolada egasi shaxsi ummunlashgan va shaxsi noma'lum gaplarning lingvistik tahlili va shu mavzu asosida Toxir Malikning asari bo'yicha tahlil qilingan.

Key words: Egali va egasiz gaplar, egasi ma'lum, egasi umumlashgan, egasi noma'lum gaplar.

An'anaviy tilshunoslikda egani ikkiga bo'lib o'rganamiz, bular: egali va egasiz gaplardir. Hammamizga ma'lumki egali gaplarning egasi o'quvchi uchun ma'lum bo'lib, uni topishga hech qanday ehtiyoj sezmaydi. Masalan: Lola guruhimizdagi eng aqilli qizlardan biri ekanligi barchamizga ma'lum. Egali gaplarda har doim ham egasi ma'lum bo'lib kelavermaydi, egasi/shaxsi yashirinib yoki umumlashib ham kelishi mumkin. Biz uning egasini albatta kesim orqali aniqlaymiz. Masalan quyidagi gaplarni olaylik, Oilaviy ko'chib kelganmiz. Ushbu gapning kesimidagi -miz, birinchi shaxs ko'plik qo'shimchasiga qarab, uning egasi biz ekanligini anglab olamiz.

Egasiz gaplar: 1. Egasi/shaxsi ma'lum; 2. Egasi/shaxsi noma'lum; 3. Egasi/shaxsi umumlashgan gaplarga bo'linib tahlil qilinadi. Egasi/shaxsi ma'lum gaplarda, egasi ma'lum bo'ladi va ega yashirin holda ifodalanadi. Kecha kursdoshlarim bilan toqqa bordik. Bu yerda ega biz, ya'ni Biz kursdoshlarimiz bilan toqqa bordik degan ma'no bilan teng, farqi egasi yashirinib kelgan, egasi ma'lum gap ekanligidir. Ammo shunday gaplar borki, undagi ya'ni gapning mazmuniy markazi bo'lmish kesimdagi hukm, xulosa barchaga birdek tegishli bo'ladi va bunday gaplarga egasi/shaxsi ummunlashgan gaplar deb qaraladi. Egasi/shaxsi ummunlashgan gaplarga misol qilib ko'proq maqol, matal va hikmatli so'zlarni olishimiz, maqsadga muvoviq bo'ladi. Misol o'rnida quyidagilarni olishimiz mumkin:

- Oltin olma, duo ol, Duo Oltin emasmi.
- Olim bo'lsang, Olam seniki.
- Sanamy sakkiz dema.
- Yetti o'lchab bir kes. (47-bet)

Egasi/shaxsi umumlashgan gaplar mazmunan har uchala shaxsga taalluqli bo'lishi barcha adabiyotlarda aytiladi. Bu turdagi gaplar mazmunan har uchala shaxsga taalluqli bo'lgani bilan bir qatorda, ikkinchi shaxs birlikda qo'llanilishi bilan harakterlanadi. Masalan, Extiyot bo'ling Grippp! va h.z.

Egasi/shaxsi noma'lum gaplarda esa ifodalangan ish-harakat yoki biror holat, bajaruvchining faol ishtirokisiz yuzaga chiqadi. Bunday gaplarda grammatik jihatdan ega ifodalanmaydi, shaxsi noma'lum gaplar, shaxsi umumlashgan va shaxsi ma'lum gaplardan farqlangan holda, bunday gaplarning egalarini tiklab ham bo'lmaydi. Uning kesimi ko'pincha III-shaxs qolipida ifodalanadi. Misol uchun, Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Bunday gaplarning kesimi majhul nisbat va majhul nisbat ma'nosida qo'llangan, aniq nisbat orqali ifodalanadi. Egasi/shaxsi noma'lum gaplarni hosil qiladigan turli gaplar mavjud.

1. Ravishdosh + bo'ladi/bo'lmaydi.

Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.

2. Harakat nomi + kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin. Bu ishlarning ko'pini bajarish mumkin.

3. Majhul nisbat qo'shimchasini olgan fe'l bilan ham ifodalanadi. Besh Kundan keyin aniqlanadi.

[To'g'ri kelmoq] fe'li orqali ifodalaganda. Bu ishni qaytay ko'rib chiqishga to'g'ri keladi.

Ushbu mavzuyimiz xususida, Toxir Malikning "Shaytanat" romaniga *Qimorda xazil bo'lmaydi* gapi, barcha uchun umumiy qilib aytilgan, yuqorida aytib o'tilganidek, gap mazmuni har uchala shaxsga birdek taalluqli hisoblanadi. Nega deganda, qimor o'ynagan odam, ohirida xonavayron bo'lishini anglab yetgan holda bu ishga qo'l urishi lozim. Vaholanki o'z ishining ustasi bo'lish ulguragan qimorbozlar, sizning yutqazganingizni kechirib ketadigan ota-onangiz, o'z jigarlaringiz emas, ularning ko'ngli bo'shab sizga rahmlari kelishi amri mahol, shunday bo'lgan taqdirda ham qarzingiz evaziga siz uchun juda qadrli bo'lgan narsangizni garov sifatida talab qiladi, o'z yog'iga qovrulayotgan siz esa boshqa yo'lingiz yoqligidan rozi bo'lishga majbur bo'lasiz. Shunday ekan qimorning ohiri har qanaqasiga yaxshi emas. Yana misol qilib "Tashqarida it ulidi" gapini ta'riflaydigan bo'lsak, maqollar ham shaxsi umumlashgan gaplarga misol bo'ladi.

Shaxsi noma'lum gaplarga Oyni etak bilan yopib bo'lmas, sizdan hech narsani sir tutib bolmas ekan, gaplarini misol sifatida keltirsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent-2020.

2. B.Mengliyev. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent-2018.

3. Tohir Malik. Shaytanat. Toshkent – 2013.

4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2- jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – В. 99-103. (10.00.00 № 31)